

BIZNES KAYFIYATI SHARHI (2025-YIL III CHORAK)

Qisqa tavsif

Dekabr 2025

2025-YIL III CHORAGI BIZNES KAYFIYATI TAVSIFI

2025-yilning III choragida O'zbekiston bo'yicha biznes kayfiyati ijobiy dinamika bilan davom etdi. Hududlarda o'tkazilgan so'rov natijalari tadbirkorlarning iqtisodiy faollik, biznes muhiti va bandlik bo'yicha baholari ijobiy va barqaror shakllanayotganini ko'rsatdi. So'rovda ishtirok etgan tadbirkorlarning **62 foizi** joriy biznes shart-sharoitlarini o'tgan chorakka nisbatan yaxshilangan deb baholadi. Bu ko'rsatkichning so'nggi ikki yil davomida o'rtacha **50 foizdan** yuqori darajada shakllanayotgani iqtisodiy islohotlarning biznes muhiti yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganligini anglatadi.



Biznes muhitining yaxshilanish darajasi

74%

61%

60%

57%

Tadbirkorlar biznes muhitidagi eng muhim ijobiy o'zgarishlar sifatida bank xizmatlari sifatining yaxshilangani, kredit olish imkoniyatlarining kengaygani, raqobat muhitining yaxshilanayotgani, litsenziyalash jarayonlarining soddalashgani va ma'muriy aralashuvlar qisqarganini qayd etishdi. Shuningdek, ko'plab hududlarda yo'l infratuzilmasi bo'yicha ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Shu bilan birga, soliq ma'murchiligi, bojxona tariflari va energetika ta'minotida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmaganligi ta'kidlandi.

Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlarining barqaror shakllanishi III chorakning asosiy xususiyatlaridan biri bo'ldi. Buyurtmalar hajmi, ishlab chiqarish, yuk tashish va energiya iste'molida mo'tadil o'sish yoki sezilarli o'zgarishlarsiz barqaror shakllandi. Ayrim hududlarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish sezilarli oshgan bo'lsa, boshqa hududlarda energiya ta'minotidagi uzilishlar, ichki talab, aylanma mablag'larning yetishmovchiligi va yonilg'i narxlarining qimmatlashishi ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq va samarali foydalanishni cheklagan.

Mehnat bozorida faollik barqaror shakllanib, aksariyat korxonalarning qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talabi o'tgan chorak darajasida o'zgarishsiz saqlanib qoldi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, turizm va qurilish sohalarida qo'shimcha ishchi kuchiga talabning oshishi kutilmoqda. Bu esa iqtisodiyotning real sektorida faollik davom etayotganini anglatadi.

Moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha qarz majburiyatlarining kamayganini ta'kidlagan tadbirkorlar ulushi o'tgan chorakka nisbatan ko'paydi, kreditlarga bo'lgan talab esa hududlar bo'yicha turlicha shakllandi. Kredit resurslariga eng yuqori ehtiyoj ta'lim, tibbiyot, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, turizm va maishiy xizmatlar yo'nalishlarida qayd etildi.


Umuman olganda, tadbirkorlarning **69 foizi** kelgusi uch yilda makroiqtisodiy vaziyat yaxshilanishiga ishonch bildirgan. Bu ko'rsatkich tadbirkorlik subyektlarida islohotlarga bo'lgan ishonchning yuqori darajada ekanidan darak beradi.

HUDUDLAR KESIMIDA XULOSALAR


TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATI

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida biznes muhitidagi ijobiy dinamika saqlanib qoldi. Tadbirkorlarning **60 foizi** biznes sharoitlari yaxshilanganini qayd etdi. Moliya, hunarmandchilik, umumiy ovqatlanish va qurilish sohalarida faollik sezilarli oshgani qayd etildi. Bank xizmatlari sifati, litsenziyalash va kredit olish jarayonlarining soddalashuvi, raqobatning kuchayishi asosiy ijobiy omillar bo'lib qayd etildi.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati,
o'zgarishi, respondent ulushi, foizda



Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar,
respondentlar ulushi, foizda




Iqtisodiy faollik bo'yicha buyurtmalar va ishlab chiqarish hajmlari ko'paygani qayd etildi. Shu bilan birga, energiya ta'minotidagi uzilishlar, ichki talabning yetarli darajada emasligi va ijara xarajatlarining yuqoriligi ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilgan. Kelgusi chorakda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha faollik yanada ortishi kutilmoqda.


BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARI

Mazkur hududlarda tadbirkorlik muhiti ijobiy barqaror bo'lib, so'rov ishtirokchilarining **60 foizi** biznes muhitining yaxshilanganini bildirdi. Maishiy xizmat, qishloq xo'jaligi, umumiy ovqatlanish va tibbiyot sohalarida o'sish sezildi. Bank xizmatlari sifati va kredit olish imkoniyatlarining kengayganligi asosiy ijobiy omillar sifatida qayd etildi.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati,
o'zgarishi, respondent ulushi, foizda



Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar,
respondentlar ulushi, foizda




Iqtisodiy faollikda buyurtmalar, ishlab chiqarish va qo'shimcha ishchi kuchiga talab oshgani kuzatildi. Biroq, energiya ta'minoti va ichki talabning yetarli darajada emasligi ayrim korxonalarning to'liq quvvatlarda faoliyat olib borishiga to'sqinlik qildi. Kelgusi chorakda energiya iste'moli va buyurtmalar hajmida sezilarli o'sish kutilmoqda.


ANDIJON, NAMANGAN VA FARG'ONA (FARG'ONA VODIYSI)

Farg'ona vodiysida eng yuqori ijobiy kayfiyat qayd etilib, respondentlarning **74 foizi** biznes shart-sharoitlari yaxshilanganini bildirdi. Xususan, turizm, ishlab chiqarish va qurilish sohalarida faollik sezilarli o'sdi. Ijoyib baholar bo'yicha bank xizmatlari sifati, kredit resurslari kengayishi va ma'muriy to'siqlarning kamayishi qayd etildi.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati,
o'zgarishi, respondent ulushi, foizda



Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar,
respondentlar ulushi, foizda




Faollik ko'rsatkichlari buyurtmalar hajmining sezilarli oshganini ko'rsatdi (**65 foiz**). Energiya iste'moli va ishchi kuchiga talab ham yuqori bo'ldi. Aksincha, ayrim tarmoqlarda, jumladan umumiy ovqatlanish va tashish xizmatlarida pasayish kuzatildi. Kelgusi choraklarda ishlab chiqarish va buyurtmalar hajmining yanada o'sishi kutilmoqda.


QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI

Mazkur hududlarda tadbirkorlik muhitidagi ijobiy tendensiya barqaror shakllanib, respondentlarning **61 foizi** biznes shart-sharoitlar yaxshilanganini bildirdi. Turizm, moliya, ishlab chiqarish va ta'lim sohalaridagi ijobiy baholar faollikning asosiy manbayi bo'ldi. Bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlari va ma'muriy aralashuvlarning soddalashganligi ijobiy omil sifatida qayd etilgan.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati,
o'zgarishi, respondent ulushi, foizda



Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar,
respondentlar ulushi, foizda




Biroq ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish pasaydi, bu esa energiya uzilishlari, ichki talabning yetarli darajada emasligi, soliq tizimidagi murakkabliklar va yonilg'i narxlarining qimmatlashishi bilan bog'liq bo'ldi. Kelgusi chorakda ishlab chiqarish hajmining mo'tadil oshishi kutilsa-da, energiya iste'moli va mehnat bozori bo'yicha kutilmalarda biroz pasayish mavjud.


JIZZAX VA SIRDARYO VILOYATLARI

Bu hududlarda biznes kayfiyati barqaror ijobiy shakllanib, respondentlarning **60 foizi** tadbirkorlik qilish bo'yicha shart-sharoitlar yaxshilanganini ma'lum qildi. Ta'lim, aloqa, hunarmandchilik va savdo tarmoqlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlari va yo'l infratuzilmasi yaxshilangani asosiy omillar bo'ldi.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati,
o'zgarishi, respondent ulushi, foizda



Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar,
respondentlar ulushi, foizda




O'z navbatida, iqtisodiy faollik buyurtmalar, ishlab chiqarish va energiya iste'molidagi o'sishlarda namoyon bo'ldi. Shunga qaramay, soliq tizimidagi qiyinchiliklar, energiya ta'minotidagi uzilishlar va aylanma mablag'larning yetarli darajada emasligi ayrim korxonalarning to'liq quvvatda ishlashiga xalaqit berdi. Kelgusi chorakda qo'shimcha ishchi kuchiga talabning o'sishi kutilmoqda


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI VA XORAZM VILOYATI

Mazkur hududlarda biznes kayfiyati o'tgan chorakka nisbatan barqaror saqlanib, respondentlarning **57 foizi** biznes shart-sharoitlar yaxshilanganini qayd etdi. Turizm, aloqa, qurilish, qishloq xo'jaligi va tibbiyot sohalarida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan ijobiy baholar qayd etildi. Bank xizmatlari sifati, kredit olish va litsenziyalash jarayonlari yaxshilangani ta'kidlandi.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati, o'zgarishi, respondent ulushi, foizda



Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



Iqtisodiy faollik ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha pasaygan bo'lsa-da, kelgusi chorakda ishlab chiqarish, buyurtmalar va yuk tashish hajmlarining oshishi bo'yicha ijobiy kutilmalar mavjud. Mehnat bozorida qo'shimcha ishchi kuchiga talabning oshishi, ayniqsa turizm, qishloq xo'jaligi va umumiy ovqatlanish sohalarida kutilmoqda. Energiya ta'minoti va aylanma mablag'lardagi cheklovlar ishlab chiqarish

To'liq sharh bilan quyidagi [havola](#) orqali tanishishingiz mumkin: